

**Samarqand davlat universitetining
2021-yil 9-noyabrdagi 403-ij sonli
buyrug'iga 1-ilova**

**Samarqand davlat universiteti talabalari uchun akademiklar Akbar
Otaxo'jayev, Vohid Abdullayev, Botirxon Valixo'jayev nomidagi universitet
stipendiyalari va uni tayinlash tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Akademiklar Akbar Otaxo'jayev, Vohid Abdullayev, Botirxon Valixo'jayev, (keyingi o'rinlarda – A.Otaxo'jayev, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev) nomidagi universitet stipendiyalari universitetda a'lo baholarga o'qiyotgan, iqtidorli, ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanayotgan 2-3-kurs talabalari uchun ta'sis etiladi.

2. Akademiklar A.Otaxo'jayev, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev nomidagi universitet stipendiyalari universitetning 2-3-kurs talabalariga ta'lim yo'nalishlariga mos ravishda tayinlanadi.

II. Stipendiya belgilash tartibi

3. Akademiklar A.Otaxo'jayev, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev nomidagi universitet stipendiyalari har o'quv yilida 1-sentabrdan keyingi yilning may oyigacha universitetning 2-3-kurs talabalariga (talabalarga tayinlanadigan stipendiyaning 33 foizi miqdorida) universitet Kengashining qarori hamda rektorining buyrug'i bilan tayinlanadi.

4. Akademiklar A.Otaxo'jayev, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev nomidagi universitet stipendiyalari universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

III. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

5. Akademiklar A.Otaxo'jayev, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev nomidagi universitet stipendiyalariga o'quv jarayonida yuqori reyting ko'rsatkichga ega bo'lgan barcha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichi a'lo (ko'pi bilan 25 foizi yaxshi), ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan, ilmiy maqolalari chop etilgan 2-3-kurs bakalavr yo'nalishi talabalari da'vogar bo'lishlari mumkin.

6. Akademiklar A.Otaxo'jayev, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev nomidagi universitet stipendiyalariga davogar bakalavr yo'nalishi talabalarining ma'lumotlari (hujjatlari jamlangan yig'ma jildlari) har yili 20-avgustga qadar universitet Kengashiga taqdim etiladi.

IV. Stipendiyaga topshiriladigan hujjatlar

7. Akademiklar A.Otaxo'jayev, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev nomidagi universitet stipendiyalari tanloviga nomzodlar quyidagi hujjatlarni iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limiga taqdim etadi;

- Dekanat va kafedra tavsiyanomasi;

- Reyting daftarchasi nusxasi (nusxa fakultet dekani imzosi va fakultet muhri bilan tasdiqlanadi);
- Ilmiy ishlar ro'yxati;
- Ilmiy (ijodiy) ishlar annotatsiyasi;
- Ilmiy maqolalar nusxalari;
- Ilmiy (ijodiy) ish bo'yicha ilmiy rahbar va kafedraning xulosasi;
- Pasport nusxasi;
- 2 dona 10x15 sm o'lchamdagi rangli fotosurat

Qo'shimcha hujjatlar (Sertifikat, faxriy yorliq, maqto'v yorlig'i... *faqat o'qishi davomida erishilgan yutuqlari inobatga olinadi.*) Barcha hujjatlar jildga joylangan holda taqdim etiladi.

V. Hujjatlarni ko'rib chiqish tartibi

8. Akademiklar A.Otaxo'jaye'v, V.Abdullayev, B.Valixo'jaye'v nomidagi universitet stipendiyalariga nomzodlarning hujjatlari har yili 20-avgustga qadar tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi, g'oliblar ro'yxati shakllantiriladi va universitet Kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

9. Universitet kengashi tomonidan akademiklar A.Otaxo'jaye'v, V.Abdullayev, B.Valixo'jaye'v nomidagi universitet stipendiyalariga nomzodlarni tayinlash to'g'risidagi qaror chiqaradi.

VI. Yakuniy qoidalar

10. Akademiklar A.Otaxo'jaye'v, V.Abdullayev, B.Valixo'jaye'v nomidagi universitet stipendiyalari tayinlangan nomzodlarga sertifikatlar universitet kengashining yig'ilishida tantanali ravishda topshiriladi, hamda universitet veb-sahifasida yoritib boriladi.

11. Akademiklar A.Otaxo'jaye'v, V.Abdullayev, B.Valixo'jaye'v nomidagi stipendiyalar talabalarni kundalik darslarni o'zlashtirmaganlik, o'quv intizomini va ilmiy, odob-axloqni buzganlik uchun o'quv yili mobaynida universitet stipendiyalaridan mahrum qilish fakultetlarning taqdimnomalariga binoan universitet rektorining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

12. Talabalarning akademiklar A.Otaxo'jaye'v, V.Abdullayev, B.Valixo'jaye'v nomidagi universitet stipendiyalarini tayinlash bo'yicha ariza va shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda universitet rektorining buyrug'iga asosan tuzilgan komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.